

MAMLAKATIMIZ OLIY O‘QUV YURTLARIDA TALABALAR MUSTAQIL TA’LIMINI TASHKIL ETISH HOLATLARI

Xasanov Tursunali Xaydarali o‘g‘li
Namangan Davlat Texnika Universiteti
1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: *ushbu maqolada O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida talabalar mustaqil ta’limini tashkil etishning amaldagi holati, mustaqil ta’limning mazmuni, maqsadi va vazifalari yoritilib, kredit-modul tizimi sharoitida uni samarali tashkil etishning dolzarb muammolari, aralash ta’lim (Blended Learning) va teskari ta’lim (Flipped Learning) modellari haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *mustaqil ta’lim, kredit-modul tizimi, oliy ta’lim, talaba kompetensiyasi, ta’lim sifati, Blended Learning, Flipped Learning, raqamli texnologiyalar, innovatsion pedagogika, mustaqil ish, kompetensiyaviy yondashuv, ta’lim jarayoni.*

So‘nggi yillarda oliy ta’limda ta’lim natijadorligini oshirish, o‘quv jarayonini shaffof va taqqoslanadigan shaklga keltirish, talabaning individual ta’lim trayektoriyasini qo‘llab-quvvatlash hamda akademik mobillikni kuchaytirish kabi vazifalar ta’limni boshqarishning yangi yondashuvlarini talab qilmoqda.

Mustaqil ta’lim – talabaning o‘qituvchi tomonidan belgilangan ta’lim maqsadlari va kutilayotgan natijalarga tayangan holda, o‘quv topshiriqlarini o‘zi rejalashtirib bajarishi, manbalarni izlab topishi va tahlil qilishi, o‘z-o‘zini nazorat qilishi hamda refleksiya orqali natijani baholashi bilan tavsiflanadigan, auditoriyadan tashqari va auditoriya ichida ham tashkil etilishi mumkin bo‘lgan maqsadli o‘quv-bilish faoliyatidir.

Qo‘qon davlat pedagogika instituti dotsenti, DcS Ziroat Anvarovna Xolmatovaning fikricha, talabalarning mustaqil talimini tashkil etish quyidagi vazifalarni ijobiy hal etishni taqazo etadi:

- talabalarda o‘z-o‘zini rivojlantirish, mustaqil bilim olish va innovatsion faoliyatni shakllantirishga imkon beruvchi kompetensiyalarni egallash maqsadi bilan bog‘liqlikda mustaqil o‘quv faoliyatini amalga oshirish;
- bilim, ko‘nikma va malakalarni mustaqil egallash, muammoni shakllantira olish va uni hal etishning maqbul yo‘larini izlab topishga qobiliyatli kreativshaxsni tarbiyalash;
- talabalarda o‘quv dasturini o‘zlashtirishga doir motivatsiyani hosil qilish;
- talabalarda bilim olishga doir masuliyatni oshirish;
- talabalarda umummadaniy va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga imkon berish;
- talabalarda mustaqil bilim olish, o‘z-o‘zini boshqarish va o‘zo‘zini rivojlantirishga qobiliyatlikni shakllantirish uchun sharoit yaratish.

Muallifning fikri ilmiy jihatdan o‘rinli, chunki unda mustaqil ta’lim faqat topshiriq bajarish jarayoni sifatida emas, balki talabaning shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini

rivojlantiruvchi pedagogik mexanizm sifatida talqin qilingan. Bu yondashuv kredit-modul tizimining natijaga yo‘naltirilgan (learning outcomes-based) mohiyatiga to‘liq mos keladi.

Toshket viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti Genetika va evolyutsion biologiya kafedresi o‘qituvchisi D.Zakirovning ta’kidlashicha, bugungi kunda talaba shahsi uchun mustaqil talimning o‘quv protsesining yuklamasi sifatida belgilanib qolganligi, mustaqil talim mavzularini to‘g‘ridan-to‘g‘ri fan dasturidagi mavzular bilan bir hilligi, mustaqil ish mavzusining malum bir muammoga y‘o‘naltirilmaganligi balki aksariyat hollarda turli manbaalardan olinadigan tayyor materiallar orqali yoritilishi hamda mustaqil ishni amaliyotda tatbiq qilmaslik kabi holatlar talim sifati samaradorligining dolzarb muammolaridan biri. Chunki bugungi kunda talabalar uchun mustaqil talim faqatgina qo‘shimcha ishdek namoyon bo‘lmoqda. Talabalar mustaqil ishlarni aksariyat holatlarda avvalgi mustaqil ishlardan ko‘chirish, internet tarmog‘idan mavzuga oid tayyor materiallarni nushalash orqali amalga oshirmoqdalar. Eng qizig‘i ayrim oqituvchilar tomonidan mustaqil ish hajmi, ko‘rinishi, uning rejalashtirilishidan tortib xulosa qismigacha standartlashtirilishi holatlari ham mavjud.

Shuningdek, mustaqil ishlar konkret belgilangan standartlardan holi bo‘lishi, ularning mazmunan va usluban qolipga solinishi mustaqil ishlarni plagiat asosida amalga oshishiga olib keladi.

Talaba mustaqil ish bajarishi uchun eng avvalo, tanlov asosida mavzuni o‘zi tanlashi, albatta o‘qituvchi tomonidan ishning borishi yuzasidan tavsiya va maslahatlar olishi lozim.

Mustaqil ish hajmi mavzuning oddiy va murakkabligidan kelib chiqishi, unga turli ilovalarni majburiy tarzda kiritilmasligi, yoritilish erkinligi (talaba xohlasa ilmiy rasm sifatida chizib bersin), muayyan laboratoriya, tajriba natijasiga tayanilishi lozim.

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida mustaqil ta’lim soatlari ulushini kamligi, talabalarda mustaqil ta’lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllanmaganligi, o‘quv jarayonida talabalarda tashkilotchilik qobiliyati, kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish zamon talabiga mos kelmasligi asosiy muammolar qatoriga kiradi.

Muallifning mustaqil ta’lim soatlari ulushining kamligi va metodik texnologiyalarning zamon talabiga mos emasligi haqidagi fikri ham dolzarb, biroq bu masalada muammoni faqat soat hajmi bilan emas, balki mavzu dizayni, baholash mezonlari, teskari aloqa sifati va interfaol metodlardan foydalanish darajasi bilan birgalikda baholash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ya’ni, mustaqil ta’lim samaradorligi ko‘proq uni qanday tashkil etish mexanizmiga bog‘liq.

TDPU p.f.n., professor S.Q.Tursunov va Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tayanch doktoranti I.S.Umarovlarning “Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish bo‘yicha” o‘quv qo‘llanmasida ta’kidlanishicha, talabalarning mustaqil ishlari asosida o‘quv jarayonini tashkil etishning ikkita asosiy yo‘nalishi mavjud:

1. Auditoriya mashg‘ulotlarida mustaqil ishlarning rolini oshirish. Buni amalga oshirish uchun professor-o‘qituvchilardan auditoriya mashg‘ulotlarini tashkil etishda talabalarning yuqori darajadagi mustaqilligi va tayyorgarligi sifatini ta’minlaydigan metodika va shakllarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

2. Talabalarning auditoriyadan tashqari vaqtlarda barcha yo‘nalishlar bo‘yicha mustaqil ishlardagi faolliklarini oshirish.

Mualliflar tomonidan talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda ikki asosiy yo‘nalishning (auditoriya ichida va auditoriyadan tashqarida) ajratib ko‘rsatilishi ilmiy-metodik jihatdan juda o‘rinli, chunki kredit-modul tizimida mustaqil ta‘lim faqat darsdan tashqari topshiriqlar bilan cheklanmaydi. Aksincha, auditoriya mashg‘ulotlarining o‘zida ham talabaning mustaqil fikrlashi, tahlil qilishi va qaror qabul qilishi uchun metodik sharoit yaratish muhim hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalarni joriy joriy etish sharoitida TMTni tashkil etish metodlaridan biri bugungi kunda dunyo bo‘ylab keng tarqalgan aralash ta‘lim (blended learning) modelidir. Mazkur model Badrul Xan tomonidan ishlab chiqilgan.

Aralash ta‘limni joriy etishdagi to‘siqlardan biri talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasida axborot texnologiyalarining past darajasi bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, axborot texnologiyalarining turli darajalari guruh ishini qiyinlashtirishi mumkin.

Blended learning – bu pedagogik va raqamli (axborot) texnologiyalarning simbiozi bo‘lgan yangilik. Ya’ni, ushbu texnologiya amalga oshiriladigan ta‘lim muhitining raqamli transformatsiyasi, yanada yuqori darajadagi innovatsion jarayondir.

Bundan tashqari, hozirgi vaqtda bir qator universitetlarda ham Flipped learning modelidan foydalanish uchun barcha sharoitlar yetarli hisoblanadi.

Flipped learning – bu o‘quv jarayonining tashkiliy asoslarini tubdan qayta ko‘rib chiqish g‘oyasini amalga oshirish sifatida qabul qilingan model. E. Mazur tomonidan taqdim etilgan bu model axborot texnologiyalari va maxsus tanlangan dasturlardan foydalanishdan iborat bo‘lib, ular o‘qituvchi tomonidan yangi materiallarni tushuntirish, uyda ma’ruza materiallarini o‘qituvchilar uchun qulay bo‘lgan suratda qayta-qayta takrorlash imkonini beradi.

Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, O‘zbekiston oliy ta‘lim muassasalarida talabalar mustaqil ta‘limini tashkil etish bo‘yicha mavjud ilmiy qarashlar va amaliy tajribalar muhim metodik asos yaratadi, biroq ularni kredit-modul tizimi talablari nuqtai nazaridan yaxlit, tizimli va innovatsion metodika shaklida takomillashtirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Xolmatova Z.A. “TALABALAR MUSTAQIL TA’LIMINI TASHKIL ETISH - PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA” // Qo‘qon universiteti xabarnomasi – 2024. – №. 13. – Bet 166-168

2. Zakirov D. OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA’LIM OLIISHINI TASHKIL ETISHNING YANGI USULLARINI YARATISH //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. 5. – C. 1382-1387.

3. Tursunov S.Q., Umarov I.S., “KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARNING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH” bo‘yicha o‘quv qo‘llanma., Toshkent – 2024, 31-bet

4. Wisner R.A., Khan B.H. Learning on Demand ADL and the Future of e-learning//Advanced Distributed Learning. 2010. – P. 338-340.
5. Sara Arnold-Garza. Towson University. “The Flipped classroom teaching model and its USE for information literacy instruction”. 2014.